



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



DENOV TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA INSTITUTI



INNOVATIVE
ACADEMY

**ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING
DOLZARB MASALALARI**
VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLAR TO'PLAMI
20-OKTABR, 2025 YIL





ZO'TDB

ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING DOLZARB
MASALALARI VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI

DENOV, 20-OKTABR 2025 YIL

in-academy.uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

"INNOVATIVE ACADEMY RSC" NASHRIYOTI

"ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING DOLZARB MASALALARI" VI RESPUBLIKA ILMIY- AMALIY KONFERENSIYASI

**Central Asian Journal of Education and Innovation
Volume 4, Issue 10: Special Issue
October 2025**

Conference has been listed in different indexings

**SIN
DEX**

OpenAIRE

**Google
Scholar**

**OJS
OPEN JOURNAL SYSTEMS**

**OPEN
ACCESS**

**doi
DIGITAL
OBJECT
IDENTIFIER**

zenodo

**«Innovative Academy RSC»
Denov – 2025**



ZOTDB

ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING DOLZARB
MASALALARI VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
DENOVI, 20-OKTABR 2025 YIL

in-academy.uz

ISSN: 2181-4481

«ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING DOLZARB MASALALARI» VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami, (2025 yil 20-oktabr) - T.: Innovative Academy RSC, 2025

«Central Asian Journal of Education and Innovation» ilmiy-uslubiy jurnali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan olingan R-566946-sonli guvohnomaga ega.

Konferensiya tarkibidagi barcha materiallarga DOI unikal raqami biriktirilib, **Sindex**, **Zenodo**, **Open Aire**, **Google Scholar**, xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniylikiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Nashr etishda qatnashganlar:

Mordayev Bekzod Turobovich, Akbarov Nurislom Axtamjon o'g'li, Toshxo'jayev Islomxo'ja Ilxom o'g'li, Akbarova Dilafruz Axtamjon qizi, Quchqarov Azamat Murotjonovich, Akbarova Dildora Axtamjon qizi

Tahririyat hay'ati a'zolari

Ruziye O'zbek Abdimo'minovich	Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Suvonov Zavqiddin Norqulovich	Filologiya fanlari doktori (DSc)
Suyunov Baxodir Turdiyevich	Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Jo'rayev Ilyos Ro'ziqulovich	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xidirov Rajabali Gulmatovich	Filologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Boymirzayev Akbarali Mingboyevich	Katta o'qituvchi
Ro'ziyev Qahramon Kuzimuratovich	O'qituvchi

© Innovative Academy RSC

© Mualliflar





ZO'TDB

ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING DOLZARB
MASALALARI VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
DENOVI, 20-OKTABR 2025 YIL

in-academy.uz

4-SHO'BA. ADABIYOTSHUNOSLIK VA FOLKLORSHUNOSLIK TARAQQIYOTI.

СЕКЦИЯ 4. РАЗВИТИЕ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЯ И ФОЛЬКЛОРОВЕДЕНИЯ.

SECTION 4. DEVELOPMENT OF LITERARY STUDIES AND FOLKLORE STUDIES.



HOZIRGI O'ZBEK SHOIRALARI SHE'RIYATIDA LIRIK KECHINMA (H.AHMEDOVA IJODI MISOLIDA)

Nabiyeva Nodira Saidovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi

UDK: 821.512.133'06.09-1

saidovnanodira9@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17378282>

Annotatsiya: Mazkur maqolada H.Ahmedovanning ishq mavzusidagi tanlab olingan ayrim she'rlarining badiiyati tahlil va talqin qilingan. Shuningdek, shoiraning poetik mahorati -badiiy-tasviriy vositalardan foydalanishdagi o'ziga xosliklar, ramz, tashbeh, ko'chmlardan o'rinni foydalanib, betakror jumlar tuza olishdagi mahorati hamda ruhiy kayfiyat va holatni badiiy aks ettirishda peyzaj tasviridan ustomonlik bilan foydalana olishi kabi masalalarga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: sog'inch, hijron, kechinma, peyzaj, tashbeh, ramz, o'xshatish, talmeh, ko'chim va b.

Аннотация: В статье анализируются и интерпретируются художественные качества некоторых избранных стихотворений Х. Ахмедовой на тему любви. Внимание также уделяется таким вопросам, как поэтическое мастерство поэтессы — ее уникальное использование художественных и визуальных средств, ее способность уместно использовать символы, метафоры и метафоры для создания уникальных предложений, а также ее мастерское использование образов пейзажа для художественного отражения душевных настроений и состояний.

Ключевые слова: тоска, эмиграция, опыт, пейзаж, аллегория, символ, сравнение, тальме, перемещение и др.

Abstract: This article analyzes and interprets the artistic quality of some selected poems by H. Akhmedova on the theme of love. Attention is also paid to the poet's poetic skills - the peculiarities of using artistic and figurative means, her ability to create unique sentences by appropriately using symbols, allegories, and metaphors, as well as her masterful use of landscape images to artistically reflect mental moods and situations.

Keywords: longing, migration, experience, landscape, metaphor, symbol, analogy, metaphor, migration, etc.

Halima Ahmedova ijodida ishq mavzusi o'ziga xos tarannum etilgan. "Tatar shoiri Abdulla To'qay ta'biri bilan aytganda: "Muhabbat ul eski narsa, Har qalb uni yo'ng'orta". Darhaqiqat, har bir inson o'ziga xos tarzda sevadi, yashaydi, ishq-muhabbat haqida o'z qarashlari bor. Halima Ahmedovanning "Ko'zimning tili", "Tungi marvaridgulalr", "Erk darichasi", "Tiyramoh" kabi she'riy to'plamlaridagi she'rlarining asosiy mundarijasini ishq mavzusi tashkil qiladi.

Ko'ksimga qamadim haydalgan ishqni,
Kishanlar yasadim qorong'u tundan.
Qonagan oyog'in ko'zimga surtib,



Bir yurak so'radim telba Junundan.¹

Yer yuzida qancha inson yashasa, o'shancha qismat, o'shancha taqdir, o'shancha hayot mavjud. Inson anglashilishi murakkab yaratiq. Cheksiz borliq qanchalik g'aybga to'lib toshgan bo'lsa, insoning ruhiy olami ham shunchalik sirli va g'aroyib. Shu bois inson hayoti manzaralari rangin va turfadir. Halima Ahmedova hassos qalbli shoira sifatida inson va uning ko'nglini tadqiq etadi. Anglash mushkul bo'lgan inson ryhiyatining ulug'vorligini yoqlaydi. Qachonki, inson qalbi tushunilsa, anglansagina dunyoning juda ko'p mushkullar osonlashadi. Insonning qanday mavjudot ekanligi, uning hayoti, baxti-yu baxtsizligi nimada? She'riyat inson ko'ngli kechinmalarini taftish etishga urinadi. Inson ulkan va sirli tabiatning uzviy, ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Shuning uchun uning ruhiyatida tabiatga intilish, uning go'zalliklaridan bahra olish, unga hamohang ekanligi aks etib turadi. Shoira Halima Ahmedova she'rlarini kuzatar ekanmiz, unda inson va tabiat uzviy aloqda aks ettirilganligini ko'rish mumkin. She'rning lirik qahramoni "haydalgan ishqni" ko'ksiga qamab, "qorong'u tundan" kishanlar yasaydi. Nega aynan "Haydalgan ishqni?" Haydalgan ishq qanday bo'ladi? Quvg'indi ishqning egasi kim? Nega lirik qahramon qorong'u tundan kishanlar yasaydi? Kishan nima uchun kerak? "Qorong'u tun" qanchadan qancha oshiqlarning sirlarini o'z qo'yniga berkitadi. Tunning qorong'uligi ruhning mahzunligidan dalolat. So'lg'in vujud, umidsiz sevgi iztiroblari dilni ezadi, elakdan o'tkazadi. Liirk qahramon telba Junundan bir yurak so'raydi. Buning sababi izoh talab qilmaydi.

Vujudni xokistar etdi alanga,
Yaproqni kuydirdi tiyra bo'zlarim.
Qayta daraxt bo'lib yuksatarmanmi,
Tuproqqa to'lganda ishqli ko'zlarim?²

Lirik qahramonning vujudi ishq dardidan alanga ichida qolib ketgan. Va u iltijo qilayaptiki, dunyodan o'tib ketganida ham qayta dunyoga kelganida ham daraxt bo'lib yashnaydimi? Daraxt bahorda yashnaydi, kuzda barglari sarg'ayadi. Har yili shu hol takrorlanaveradi. Bu dunyoyi dunning qadimiyligi va eskiligini anglatadi. Insonning dard-alamlari shunchalik qadimiyki, buyuk yakunda ishqli ko'zlari tuproqqa to'lganida ham qayta yaralishni, daraxt misoli gullab-yashnashini istaydi. Azob ko'rmay rohat yo'q, dard chekmay darmon yo'q. Oshiq azoblar ichra ochiladi, ya'ni toblanadi, ruhi chiniqadi. Zaminga xokistar bo'lib qorishadi. Barchaning oyoqlari ostida yotgan tuproq, aslida, eng qimmatbahodir. Lirik qahramonning ruhi azoblar ichra yuksala boradi, ko'z yoshlarini bisyor to'kkanligi sababli, ruhi tozara boradi. Uning dardi kuchayganidan endi "o'n sakkiz ming olam quyoshlari" ham ko'nglini yoritolmaydi, diliga taskin bera olmaydi. Uning ishqqa to'la o'jar yuragi ko'z oldida "chirsillab yonmoqda". Lirik qahramonning holati nihiyatda ezgin, ayanchli. Haydalgan ishqni ko'siga qamagan oshiqning dili alanga misoli yonmoqda. Butun vujudi muzga aylanib bormoqda. Ushbu holatdan lirik qahramonning o'zi ham hayratda. Halima Ahmedova ishqni

¹ <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/halima-ahmedova/>

² <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/halima-ahmedova/>



ana shunday misralar orqali nihoyatda ta'sirchan ifodalay olgan. Bu uning mahoratini, nafis uslubini ko'rsatadi.

Shoiraning yana bir she'rida sevgi tufayli hosil bo'lgan kayfiyat manzalarini musavvirova chizadi.

Yuragim sevgidan gullagan paytlar
Gullashni daraxtga o'rgatgan edim
Mening gullab yotgan ko'nglimga boqib,
Daraxt ham entikib gulladi so'lim.³

Qalbi ishqqa to'la lirik qahramon o'z muhabbatini xuddi ilk ko'klamda gullagan daraxt barglarining kurtak yozishi bilan mengzaydi. Tabiatning uyg'onishi daraxt kurtaklarining nish urishi bilan boshlangani kabi, ilk sevgi ham yoshlik chog'larida kishi qalbiga tshrif buyuradi, nish uradi, bo'y ko'rsatadi. Daraxtning gulalshi tabiatga ko'rk, zavq bag'ishlagani kabi muhabbatga oshno bo'lgan qalb ham atrofga go'zallik baxsh etadi, quvonch ulashadi.

Yurakda gul ochgan sevgi bog'ida
Yillarning shamoli nogoh berdi pand.
Gullashdan to'xtadi yuragim ammo
Daraxt hamon gullar menga nopisand.⁴

Vaqt – oliy hakam. Insonning o'zi kabi hamma narsa o'tkinchi, hech bir narsa abadiy emas. Hatto ishq-muhabbat ham. Oshiqalar uchun bu musibat. Muhabbat alangasining so'nishi, unutilishi haqiqiy musibat, ga'm. Unutilib oragan muhabbat dardi o'tmish xotiralarni alangalatadi, dilga muhrlangan shirin xotiralar qalbga hayajon qoladi, dillarni entiktiradi. She'r misralarini o'qigan o'quvchini g'amgin kayfiyat chulg'amaydi, aksincha, shirin orziqishni his etadilar. Lirik qahramonning dil iqrorlari bilan o'quvchi hamfikir bo'ladi. Ko'ngil qatlarida ko'milib yotgan dardlar, xotiralari qayta uyg'onadi, shirin sog'inishni his etadi. Qaytmas kunlarning xotiralari bilan yashash zavqini his qiladi. Bular she'rning ma'no qatamlari.

Halima Ahmedova o'z kechinmalarini tasvirlashda tabiiy hodisalariga ko'p murojaat qiladi. Ayniqsa, daraxt, barg, maysa, xazon metaforik obrazlariga ko'p bora murojaat qilinganligini kuzatamiz. Misol uchun "Oyog'ing ostida bargday To'kilib yotardi ko'nglim" misralarini olaylik. Lirik qahramon o'zini yori oyoqlari ostiga "to'shab" yashashga rozi. Bu degani, o'zini pastga urish emas. Oyoqlarimiz ostida tuproq yastanib yotadi. Vujudimiz, aslida, tuproqdan yaralgan va bir kuni biz unga qaytamiz. Umrimiz nihoyasiga yetgach, aziz tuproq bizni o'z bag'riga oladi. Shunday ekan, yorning oyoqlari ostiga o'z ko'nglini yoyish, aslida, uning bag'riga jo bo'lish, singib ketishni anglatadi. Mana shoiraning topilmasi, falsafasi. Umuman, qalb kechinmalarining holatlari psixologiyasini, kayfiyalari ruhiyatini, hissiy tafakkur ohanglaini yaxlit muvofiqlashtirishga erishish Halima Ahmedova she'riyatining asosiy jihatlaridandir.

³ <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/halima-ahmedova/>

⁴ <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/halima-ahmedova/>



ZO'TDB
ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING DOLZARB
MASALALARI VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
DENOV, 20-OKTABR 2025 YIL

in-academy.uz

Adabiyotlar ro'yhati:

- 1.Mirziyoev Sh. O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruza // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2017 yil, 4 avgust. №32.
- 2.Quronov D. Adabiyot nazariyasi asosolari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. 480 b.
- 3.Ahmedova H. Umid soyasi. She'rlar. – Toshkent: "Nihol" nashriyoti, 2008. 168 b
- 4.Ahmedova H. Tungi marvaridlar. She'rlar. – Toshkent: G.G'.nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. 74 b.
4. Nabiyeva, N. (2024). O'zbek mumtoz soyrallari ijodida ishq mavzusi talqinlari. Tamaddun nuri cürneli, 8(59), 26-28.
- 6.Xurshid Davron. Xurshid Dostmuhammadni o'qib. | Xurshid Davron kutubxonasi (kh-davron.uz)



ZO'TDB

ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING DOLZAR
MASALALARI VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
DENOVI, 20-OKTABR 2025 YIL

in-academy.uz

82.	“BOZOR” ROMANINING FALSAFIY-BADIIY KONSEPSIYASIDA NOREALISTIK UNSURLAR	317
	Fatullayeva Nilufar Oqiljon qizi	
83.	ABDURRAHIM BEY HAGVERDIYEV AND THE REFLECTION OF MULTICULTURAL VALUES IN AZERBAIJANI LITERATURE	321
	Günel Hummatova (Paniyeva) Saleh	
84.	LIRIK SHAKLNING RUHIYAT TALQINIDAGI O'RNI (SHODMONQUL SALOM IJODI NAMUUNASIDA)	325
	Jo'ramurodova Sitara	
85.	O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AQL (WISDOM) KONSEPTI	329
	Jumanazarova Adiba	
86.	“O'TKAN KUNLAR” ROMANIDA SEVGI, SADOQAT VA VATANPARVARLIK G'OYALARI	332
	Jumanazarova Mohlaroyim Islombek qizi , Eshmamatova Charos Erali qizi , Rajabova Rayhona Muhammad qizi	
87.	CHO'LPO'NING “KECHA VA KUNDUZ” ASARIDA IJTIMOIIY MUAMMOLAR TALQINI	334
	Jumayeva Sevara Musurmonqul qizi , Nuriddinov JasminaTo'liqin qizi , Eshdavlatova Gulsanam Xayrulla qizi	
88.	MASALDA DIALOGIK MUNOSABAT YAXLITLIGI	336
	Karjavuv G'olib Azamat o'g'li	
89.	T.DRAYZERNING “SARMAYADOR” ROMANIDA KAPITALIZM DAVRINING AXLOQIIY INQIROZI	339
	Mardanov Mohira Davron qizi	
90.	HOZIRGI O'ZBEK SHOIRALARI SHE'RIYATIDA LIRIK KECHINMA (H.AHMEDOVA IJODI MISOLIDA)	342
	Nabiyeva Nodira Saidovna	
91.	ZAMONAVIY O'ZBEK AYOLLAR SHE'RIYATIDA ILTIJO OBYEKTALARI (YOR, O'LOH, TABIAT...)	346
	Nabiyeva Nodira Saidovna	
92.	O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODIDA EZGULIK VA YOVUZLIK MOTIVLARI	350
	Rahimova Iroda Jamshidovna , Muhammadnaimova Sabrina Akmaljonovna	
93.	“BOG' OCHXON” HIKOYASI VA O'ZBEK XALQ DOSTONLARINING O'XSHASH VA FARQLI JIHALTLARI TAHLILI	353
	Rustamova Fotima Bahodirovna	
94.	O.GENRI VA O'ZBEK HIKOYANAVISLARINING XARAKTER YARATISH MAHORATI	357
	Saitov Suxrob Djumaydillayevich	
95.	ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATDA POETIK TAFAKKURNING YETAKCHI TAMOILLARI (TILLANISO SHE'RIYATI MISOLIDA)	361
	Saitova Nilufar Djumaydillayevna	
96.	10-SINF O'ZBEK TILI DARSIDA “TOMARIS” VA “SHIROQ” AFSONALARINING O'QITILISHIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI”	366
	Shaxobiddinova Zebxon Adil qizi	
97.	“AHMADIY VA NAVOIY DOSTONLARIDA ISKANDAR OBRAZINING QIYOSIIY TAHLILI”	370
	Sheraliyev O'rol Egamberdi o'g'li	
98.	INGLIZ BADIIY MATNLARIDA “HIJRON” (AJRALISH, YO'QOTISH) KONSEPTINING QO'LLANILISHI	373
	Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna	
99.	EKZISTENSIALIZM VA POSTMODERNIZMDA MUALLIF-QAHRAMON- O'QUVCHI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR	376
	Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna	
100.	G'ARB, RUS VA SHARQ ADABIYOTIDA ISHBILARMON, SAVDOGAR, TADBIRKOR TIPAJLARI	379
	Toshboyeva Farida Abduxalilovna	
101.	O'ZBEK ADABIYOTIDA TADBIRKOR OBRAZI: TARIXIYLIK VA ZAMONAVIYLIK	384
	Toshboyeva Farida Abduxalilovna	



ZO'TDB

ZAMONAVIY O'ZBEK TILINING DOLZARB
MASALALARI VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI

DENOV, 20-OKTABR 2025 YIL

in-academy.uz



**INNOVATIVE
ACADEMY**

**“ZAMONAVIY O‘ZBEK TILINING
DOLZARB MASALALARI” VI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI**

**Central Asian Journal of Education and Innovation
Volume 4, Issue 10: Special Issue
October 2025**

Conference has been listed in different indexings

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ELSEVIER
SSRN

Google
Scholar

SIN
DEX

OPEN ACCESS

OpenAIRE

ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OJS
OPEN JOURNAL SYSTEMS

doi
DIGITAL
OBJECT
IDENTIFIER

zenodo

Published: 18.10.2025. Font: “Cambria” 12

LLC «Innovative Academy RSC»

License №074338 11.04.2023

Address: 100017, Uzbekistan, Tashkent city, Amir Temur Avenue 120/30

www.in-academy.uz